

O'ZBEKISTONGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH VA ULARDAN FOYDALANISHNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

Bozorov X.X.

Farg'ona davlat universiteti

Kirish. O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishida investitsion jarayonlar rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatgani holda iqtisodiyotning texnik-texnologik holatini raqobatbardosh darajada barqaror saqlab turish, hukumatimiz tomonidan o'tkaziladigan investitsion siyosatni sifat jihatidan rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish, investitsion va tadbirkorlik iqlimini, xususan, milliy iqtisodiyotning strategik tarmoq va sohalarini tubdan yaxshilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan tezkor o'zgarishlar, yangilanishlar va rivojlanishlar har bir davlatdan faol iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan samarali islohotlarni amalga oshirish va uni takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bunday yuqori darajadagi e'tibor va mas'uliyatni talab etgan holda olib boriladigan ichki hamda tashqi siyosatda milliy iqtisodiyotning ustuvor strategik manfaatlarini joriy davr va uzoq istiqbolda ham ro'yobga chiqarish shuningdek himoyalashga erishish keng ko'lamli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish bilan ta'minlanadi, biroq, bu tadbirlarni iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga ichki hamda tashqi sarmoyalarni faol jalb etmasdan turib amalga oshirib bo'lmagligini nazarda tutsak, jahonda investitsiyalar iqtisodiyotning bugungi barqarorligi va jadal o'sishini ta'minlovchi bosh omil sifatida e'tirof etilayotganligi bejizga emasligini anglash mumkin.

Jahonda milliy iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ularni istiqbolli va yuqori texnologiyalarga asoslangan sohalariga yo'naltirish mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish hamda investitsiya faolligini rag'batlantirish yo'nalishlarida qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda iqtisodiyot tarmoqlarining investitsion rivojlanish ustuvorliklarini belgilash va xorijiy investitsiyalar ishtirokida barqaror iqtisodiy o'sish modelini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish, investitsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish hamda xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga multiplikativ ta'sirini baholash muhim masalalar qatoriga kiritilgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmini kengaytirish, ularni yuqori texnologiyali va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sohalariga samarali yo'naltirish, investitsiyalarning tarmoq va hududlar bo'yicha mutanosibligini ta'minlash hamda investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda xorijiy investitsiyalar muhim rag'batlantiruvchi omil sifatida xizmat qilib, iqtisodiyotning texnik-texnologik darajasini raqobatbardosh holatda saqlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan tezkor o'zgarishlar, yangilanishlar va rivojlanishlar har bir davlatdan faol iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan samarali islohotlarni amalga oshirish va uni takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bunday yuqori darajadagi e'tibor va mas'uliyatni talab etgan holda olib boriladigan ichki hamda tashqi siyosatda milliy iqtisodiyotning ustuvor strategik manfaatlarini joriy davr va uzoq istiqbolda ham ro'yobga chiqarish shuningdek himoyalashga erishish keng ko'lamli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish bilan ta'minlanadi, biroq, bu tadbirlarni iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga ichki hamda tashqi sarmoyalarni faol jalb etmasdan turib amalga oshirib bo'lmagligini nazarda tutsak, jahonda investitsiyalar iqtisodiyotning bugungi barqarorligi va jadal o'sishini ta'minlovchi bosh omil sifatida e'tirof etilayotganligi bejizga emasligini anglash mumkin.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish investitsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi hamda mamlakatning investitsiya salohiyati, investitsiya resurslari shakllanishi va investitsiya muhiti holatiga bevosita bog'liq holda amalga oshiriladi. O'z navbatida, mazkur jarayon investitsiyalashdan ko'zlangan iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar bilan uzviy bog'langan. Zero, belgilangan maqsadlarga erishish intilishi investorlarni kapital mablag'larini safarbar etish va ularni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirishga undaydi. Maqsad muayyan natijaga qaratilgan bo'lib, erishilgan natijalar esa o'z navbatida yangi investitsiya imkoniyatlari va maqsadlarini shakllantiradi hamda investitsiya jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Xorijiy investitsiyalarning bunday harakati investitsiya faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Shu bois, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslarini ochib berishda investitsiya faoliyatining iqtisodiy mohiyati, uning mazmuni va amal qilish mexanizmlarini chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Turli iqtisodiy adabiyotlarda "investitsiya faoliyati" tushunchasi mazmun-mohiyatiga turlicha ta'riflar berilgan. Ularni chuqur va keng tadqiq etib o'tgan holda, investitsiya faoliyati mazmuniga berilgan quyidagi ta'riflarga alohida to'xtalib o'tishni lozim.

Iqtisodchi olim Neshitoyning fikricha, "Investitsion faoliyat – bu daromad olish va foydali samaraga erishish maqsadida mablag'larni joylashtirish (investitsiyalash) va amaliy harakatlarni amalga oshirish yig'indisidir" [1] - deb ta'rif bergan.

Bunga o'xshash ta'riflarni yana quyidagi iqtisodchi olimlar talqinida ham ham ko'rish mumkin. Jumladan, Rossiyalik iqtisodchi – olim V.Bocharevning fikricha: "Investitsiya faoliyati – davlat, fuqarolar va huquqiy shaxslarning

investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlari yig'indisi"ni anglatadi [2]. Mualliflar A.Arzimiya va boshqalar: "Investitsiya faoliyati investitsiya qo'yish yoki investitsiyalash hamda investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlar yig'indisi", deb ta'riflaydi [3]. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan M.Angelidi va D.G'ozibekovlar ham investitsiya faoliyatini yuqorida berilgan ta'riflarga yaqin ifodalagan [4]. Ushbu ta'riflarning barchasida investitsiya faoliyatiga mazmunan bir xil tarzda yondashilgan bo'lib, ular investorlarning investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarini aks ettirganlar.

Investitsiyalar yoki investitsion faoliyat atamaları ham olimlar tomonidan turlicha ochib berishga harakat qilingan. Jumladan: V.P.Popkov va V.Semenovlar tomonidan berilgan ta'rifda ham kuzatish mumkin, ya'ni "investitsiya faoliyati – sohaga investitsiyalarni kiritish yoki investitsiyalash, investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha davlat, yuridik shaxslar va fuqarolarning amaliy harakatlari yig'indisi sifatida o'zini namoyon etadi" deb ta'riflaydi [5].

L.L.Igonina esa investitsiya faoliyati mazmuniga ham keng, ham tor mazmunda ta'rif berish mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Ushbu atamaga keng ta'rif berilganida: "investitsiya faoliyati – bu mablag'larni investitsiyalash obyektlariga ya'ni turistik faoliyatga yoki korxonalarga daromad (samara) olish maqsadida kiritish bilan bog'liq faoliyat" sifatida tushunishni taklif etadi [6]. B.S.Mamatov, D.Y.Xujamkulov, O.SH.Nurbekovlar esa investitsiya faoliyati mazmunini xos uslubda tadqiq etishga muvaffaq bo'lgan. Ular tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "Keng ma'noda, investitsiya faoliyati – bu g'oyalarni ishlab chiqish va investitsiya loyihalarini asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, buning natijasida barpo etilayotgan obyekt faoliyatini boshqarish va investorlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish imkoniyatlarini ham aks ettiradi" deb ta'riflashadilar [7].

"Investitsiya" va "investitsiya faoliyati"ning mohiyati to'g'risida yaxlit ilmiy tasavvurni shakllantirish maqsadida mazkur tushunchalarning turli ilmiy manbalarda keltirilgan talqinlari mazmunini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq Investitsiya faoliyati investitsiyalarni jalb etish, joylashtirish va ulardan samarali foydalanish jarayonini ifoda etganligi sababli, ushbu tushunchalarning iqtisodiy mazmuni o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir-birining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, investitsiya va investitsiya faoliyatining iqtisodiy mohiyatini aniqlash ularni jalb etish va boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy investitsiyalar va investitsiya faoliyatiga berilgan ayrim ta'riflar uning iqtisodiy mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Chunki, xorijiy investitsiya faoliyati jarayonida investitsiya resurslarini jalb etish, ularni iqtisodiyot tarmoqlariga joylashtirish va natijada muayyan iqtisodiy yoki ijtimoiy samaraga erishish kabi o'zaro bog'liq bosqichlar mujassamlashgan bo'lishi lozim. Agar investitsiya natijasida kutilayotgan samara, ya'ni daromad, foyda, yangi ish o'rinlari yoki iqtisodiy o'sish ta'minlanmasa, investitsiya kiritishga bo'lgan qiziqish va rag'bat ham susayadi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy investitsiya faoliyati investitsiya jarayonining markaziy bo'g'ini hisoblanib, aynan ushbu jarayonda investitsiya resurslari kapital qo'yilmalarga, kapital qo'yilmalar esa ishlab chiqarish quvvatlari, tayyor mahsulot va xizmatlarga aylanadi hamda pirovardida iqtisodiy va ijtimoiy samarani ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bois investitsiya faolligining hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha o'zgarish tendensiyalarini tahlil qilish iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda va ularning tarkibida ham muayyan tarkibiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

2017–2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Jumladan, 2017 yilda 72,2 trln so'mni tashkil etgan investitsiyalar hajmi 2024 yilga kelib 507,5 trln so'mga yetgan va mazkur davrda qariyb 7 barabarga oshgan. Bu mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash hamda yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish natijasida investitsion faollikning kuchayganligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik), mlrd. so'm

№	Ko'rsatkichlar	yillar							
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	O'zbekiston Respublikasi	72155,2	124231,3	195927,3	210195,1	239552,6	266240	356071,4	507490,2
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2822	6757,8	8750,6	7089,8	8110,7	10254	12959,2	20567,7
3	Andijon viloyati	2986	4711,9	7452,1	9622,6	11176,6	14339,8	18639,1	28668
4	Buxoro viloyati	11613,4	9610,9	10366,6	12183,9	20528,3	21638,3	31030,5	51663,9
5	Jizzax viloyati	1788,2	3606,3	7900,9	12545,4	9233,6	10373,9	14970,9	23515,4
6	Qashqadaryo viloyati	11175,3	16518,5	24462,5	20557,6	17359,1	16012,8	21138	35482,5
7	Navoiy viloyati	3977,9	10579,5	17646,3	15688,4	15020,1	17958,1	26398,6	33550,2
8	Namangan viloyati	3586,7	8158,1	12084,9	12007,2	12982	14775,1	19220,1	54231,4
9	Samarqand viloyati	4384,2	7061,4	10266,7	14656,4	15641,6	18917,1	25717,1	28946,93

10	Surxondaryo viloyati	3551	7240,6	11835,1	10068,2	12037,8	11569,4	18307,7	16593,1
11	Sirdaryo viloyati	1628	2699,3	5869,1	7191,9	8051,8	12354,6	15871,8	11406,3
12	Toshkent viloyati	5938,4	11226,9	20353,9	21148,6	28113,6	35767,7	47709,3	73325,12
13	Farg'ona viloyati	2954,5	5539,1	8685,4	11040	12625,2	15419,3	19955	21542,7
14	Xorazm viloyati	2175,9	3013,8	5032	5391,8	8292	8769,7	11666,1	15624,1
15	Toshkent shahri	13573,7	26435,7	42458,1	50371,4	58172,7	56847,9	71143,7	91642,8

Hududlar kesimida tahlil qilinganda investitsiyalar taqsimotida sezilarli tafovutlar mavjudligi kuzatiladi.

Eng yuqori investitsiya hajmi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 2017 yildagi 13,6 trln so'mdan 2024 yilda 91,6 trln so'mga yetgan. Bu mamlakatning iqtisodiy, moliyaviy va biznes markazi sifatida Toshkent shahrida yirik investitsiya loyihalari, qurilish ishlari va xizmatlar sohasi tez rivojlanayotganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, Toshkent viloyati, Buxoro viloyati, Namangan viloyati, Qashqadaryo viloyati va Navoiy viloyati ham yuqori investitsiya jalb qiluvchi hududlar qatoriga kiradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari mamlakatda investitsiya faolligining yuqori darajada oshganligini, hududlarda iqtisodiy o'sish nuqtalarining shakllanayotganligini hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining ijobiy samara berayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar hajmining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganligi saqlanib qolmoqda. Bu esa iqtisodiy jihatdan nisbatan orqada qolayotgan hududlarga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi.

2019–2024 yillarda O'zbekistonda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar kuzatilgan. Tahlil natijalari investitsiyalarning asosiy qismi qurilish obyektlari va yerlarni yaxshilash ishlariga yo'naltirilganligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy fondlar turlari bo'yicha tarkibi, mlrd.so'm

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					
		2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Turar-joy binolari	20621,9	23200,8	29851	30184,2	36732,7	40287,9
2	Noturar-joy binolari	33408,1	38172,7	50894,5	58225,1	75452,9	91172,9
3	Boshqa inshootlar	127,3	285,9	277,1	257,1	1000,4	1693,7
4	Yerni yaxshilash	107305,8	110493,8	113863,9	115040	168810,7	241819
5	Mashina va uskunalar, jami	16588,2	12415,2	14574,5	10718,7	25608,4	36700,8
6	Transport uskunolari	3194,8	7347	5325,6	5199,7	10230	7970,3
7	Axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunolari	2418,9	2843	3656,8	3847,8	390,3	277
8	Boshqa mashina va uskunalar	372	880,7	838,6	783,8	364,5	1196,7
9	Bir necha marta mahsulot beruvchi, xayvonlar resurslari	198,1	225	138,2	365,8	562,4	1166,8
10	Bir necha marta mahsulot beruvchi daraxtlar, qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlar resurslari	28,7	25,2	98,6	154,9	1672,8	1216,7
11	Noishlab chiqarish aktivlarga mulk huquqini berish bilan bog'liq xarajatlar	3,7	1,6	0,8	26	16,8	3,7
12	Kompyuter dasturiy ta'minoti va ma'lumotlar bazalari	5,9	86,5	30,8	210,7	469,4	41,4
13	Ko'ngilochar, adabiy va badiiy asarlarning asl nusxalari	763,7	26,7	96,4	203,6	410,7	902,4
14	Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar	330,1	229	292,3	1169	4546,9	9422,6

Eng katta ulush yerni yaxshilash yo'nalishiga to'g'ri kelgan. Ushbu ko'rsatkich 2019 yilda 107,3 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 241,8 trln so'mga yetgan. Bu davrda ko'rsatkich 2,3 barobarga oshgan bo'lib, mamlakatda infratuzilmani rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish va hududlarni kompleks obodonlashtirish ishlariga katta mablag'lar yo'naltirilganligini anglatadi.

Noturar-joy binolariga investitsiyalar ham yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Jumladan, 2019 yilda 33,4 trln so'm bo'lgan ko'rsatkich 2024 yilda 91,2 trln so'mga yetgan. Bu sanoat korxonalari, savdo markazlari, ijtimoiy obyektlar va xizmat ko'rsatish muassasalari qurilishining kengayishi bilan bog'liq.

Turar-joy binolariga investitsiyalar hajmi 2019 yildagi 20,6 trln soʻmdan 2024 yilda 40,3 trln soʻmgacha oʻsgan. Mazkur holat aholi uchun uy-joy qurilishini ragʻbatlantirish, ipoteka dasturlari va yangi turar-joy massivlarini barpo etish ishlarining faollashganligini koʻrsatadi. Mashina va uskunalarga kiritilgan investitsiyalar tahlili shuni koʻrsatadiki, 2022 yilgacha maʼlum darajada pasayish kuzatilgan boʻlsa-da, 2023–2024 yillarda keskin oʻsish roʻy bergan. Xususan, mashina va uskunalar jami boʻyicha investitsiyalar 2022 yilda 10,7 trln soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2024 yilda 36,7 trln soʻmga yetgan. Bu ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish jarayonlari jadallashganligidan dalolat beradi. Transport uskunalariga investitsiyalar ham umumiy oʻsish tendensiyasiga ega boʻlib, 2019 yildagi 3,2 trln soʻmdan 2024 yilda 8,0 trln soʻmga yetgan. Bu logistika infratuzilmasi va transport sohasini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarning ortishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) uskunalariga investitsiyalar boʻyicha keskin oʻzgarish kuzatilgan. 2022 yilda 3,8 trln soʻmni tashkil etgan koʻrsatkich 2024 yilga kelib 277 mlrd soʻmgacha kamaygan. Bu holat raqamlashtirish loyihalarining asosiy qismi avvalgi yillarda amalga oshirilganligi yoki investitsiyalar boshqa nomoddiy aktivlar hisobiga qayta tasniflanganligi bilan izohlanishi mumkin.

Qishloq xoʻjaligi aktivlari boʻyicha investitsiyalar ham oʻsish tendensiyasini namoyon etgan. Jumladan, koʻp yillik daraxtlar va qishloq xoʻjaligi ekinlari resurslariga investitsiyalar 2019 yildagi 28,7 mlrd soʻmdan 2024 yilda 1216,7 mlrd soʻmgacha oshgan. Bu intensiv bogʻdorchilik va agrar sohani modernizatsiya qilishga qaratilayotgan eʼtiborning kuchayganligini koʻrsatadi. Nomoddiy aktivlar tarkibida muhim oʻzgarishlar kuzatilgan. Xususan, kompyuter dasturiy taʼminoti va maʼlumotlar bazalariga investitsiyalar 2023 yilda 469,4 mlrd soʻmgacha oʻsgan boʻlsa-da, 2024 yilda 41,4 mlrd soʻmga tushgan. Bu holat ayrim yirik raqamlashtirish loyihalarining yakunlanganligi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

Eng yuqori oʻsish surʼati ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar boʻyicha qayd etilgan. Ushbu koʻrsatkich 2019 yilda 330,1 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2024 yilda 9422,6 mlrd soʻmga yetgan. YAʼni, qariyb 28,5 barobarga oshgan. Bu mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha davlat siyosatining kuchayganligini anglatadi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi oʻzgarishini endogen omil sifatida olgan holda uning asosiy omil (resurs)lar taʼsirida oʻzgarishi boʻyicha koʻp omilli tahlil amalga oshirildi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmini natijaviy omil sifatida belgilab olgan holda, unga taʼsir etuvchi omil koʻrsatkichlarini soha mutaxassislarining yetakchi ekspertlari ishtirokida oʻtkazilgan ekspert tahlili asosida tanlangan quyidagi koʻrsatkichlar tanlandi (3-jadval):

X_1 – yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi;

X_2 – inflyatsiya darajasi;

X_3 – asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi;

X_4 – tashqi savdo aylanmasi.

Endogen omil va unga taʼsir etuvchi ekzogen omillar mohiyati nazariy jihatdan tahlil qilinganda, yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi, inflyatsiya darajasi, asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi hamda tashqi savdo aylanmasi natijaviy koʻrsatkichga taʼsir etuvchi muhim omillar sifatida namoyon boʻladi. Mazkur omillar iqtisodiyotning investitsion jozibadorligi, ishlab chiqarish faolligi, narxlar barqarorligi va tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishini ifodalab, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmiga bevosita va bilvosita taʼsir koʻrsatadi. Shu munosabat bilan, ajratilgan endogen va ekzogen omillar oʻrtasidagi bogʻliqlikni baholash hamda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmining oʻzgarish tendensiyalarini aniqlash maqsadida vaqtli qatorlar koʻrinishidagi maʼlumotlar EViews 10 dasturi yordamida tahlil qilindi.

3-jadval. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi va uning oʻzgarishiga taʼsir etuvchi omil koʻrsatkichlari

Yillar	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. soʻmda (Y)	Yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi, mlrd.soʻm (X_1)	Inflyatsiya darajasi, % (X_2)	Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. soʻm (X_3)	Tashqi savdo aylanmasi, mln.AQSH dollari (X_4)
2014	6962,6	210998,3	6,1	37646,2	27530,1
2015	8290,9	250544,6	5,6	44810,4	24924,3
2016	9473,9	290213,4	7,7	51232	24232,2
2017	14935,1	369612,8	14,4	72155,2	26566,1
2018	29566,1	494814,8	14,3	124231,3	33430
2019	47622,6	620083,2	15,2	195927,3	41751
2020	91645,1	705076,5	11,1	210195,1	36256,1
2021	102283,4	861170,8	11,5	239552,6	42170,5
2022	112701,1	1041877,9	12,3	266240	50500,3
2023	152331,6	1261806	8,8	356071,4	63528,6
2024	287738,2	1535431,7	9,8	507490,2	67238,4
2025	370500,0	1849650	7,3	650000	72 600

Yuqoridagi jadvalda ajratib olingan natijaviy va taʼsir etuvchi omil koʻrsatkichlarining oʻlchov birligi bir xil emasligi, yaʼni omil koʻrsatkichlarining bir jinsli emasligi sababli asosiy trend modelini chiziqli logarifmik bogʻlanish koʻrinishida aniqlab olindi. Buning uchun omil koʻrsatkichlarining barchasini natural logarifmik koʻrsatkichlarga keltirib

olinadi (4-jadval). Eviews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash ko'rsatkichlari orqali baholangan. Regression tahlil natijalaridan ko'rilayotgan holat uchun regression modelning koeffitsiyentlarini ajratib olgan holda trendning chiziqli logarifmik modelini shakllantirib olinadi.

4-jadval. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining logarifmik qiymati

t	LnY	LnX ₁	LnX ₂	LnX ₃	LnX ₄
2014	8,85	12,26	1,81	10,54	10,22
2015	9,02	12,43	1,72	10,71	10,12
2016	9,16	12,58	2,04	10,84	10,10
2017	9,61	12,82	2,67	11,19	10,19
2018	10,29	13,11	2,66	11,73	10,42
2019	10,77	13,34	2,72	12,19	10,64
2020	11,43	13,47	2,41	12,26	10,50
2021	11,54	13,67	2,44	12,39	10,65
2022	11,63	13,86	2,51	12,49	10,83
2023	11,93	14,05	2,17	12,78	11,06
2024	12,57	14,24	2,28	13,14	11,12
2025	12,82	14,43	1,99	13,38	11,19

Ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar ta'sirida o'zgarishining ko'p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko'ra ushbu jarayonni ifodalovchi regressiya tenglamasi tuzildi.

$$\text{LnY} = 0,63 \cdot \text{LnX}_1 - 0,29 \cdot \text{LnX}_2 + 1,3 \cdot \text{LnX}_3 - 0,69 \cdot \text{LnX}_4 - 4,9 \quad (1)$$

Chiziqli logarifmik modelni potentsirlash orqali xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini ifodalovchi chiziqsiz ko'rinishdagi ekonometrik modelga keltirib olindi:


$$Y_1 = \frac{X_1^{0,63} \cdot X_3^{1,3}}{X_2^{0,29} \cdot X_4^{0,69} \cdot e^{4,9}} \quad (2)$$

Eviews10 dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan trend modellari asosida 2026-2030 yillarda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi o'zgarishining istiqboldagi ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash uchun eng qulay modellar ro'yxati keltirildi (5-jadval).

5-jadval. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining trend modellari hamda 2026-2030 yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar va ularning omilli modellari	Prognoz ko'rsatkichlari				
	2026	2027	2028	2029	2030
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm $Y_1 = \frac{X_1^{0,63} \cdot X_3^{1,3}}{X_2^{0,29} \cdot X_4^{0,69} \cdot e^{4,9}}$	421651,4	474476,1	528480,7	583553,5	639598,6
Yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi, mlrd.so'm $x_1 = 143131,8 \cdot t - 139417$	1721296	1864428	2007560	2150692	2293824
Inflyatsiya darajasi, % $x_2 = 0,1 \cdot t + 9,5$	10,8	10,9	11	11,1	11,2
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm $x_3 = 50225,6 \cdot t - 96837,5$	556095,3	606320,9	656546,5	706772,1	756997,7
Tashqi savdo aylanmasi, mln.AQSH dollari $x_4 = 4514,7 \cdot t + 13195,5$	71886,6	76401,3	80916	85430,7	89945,4

Ko'p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining o'rta muddatda, ya'ni 2014-2030 yillarda o'zgarishi qiymatlarini grafik ko'rinishi ifodalandi (1-rasm). Yuqoridagi omilli bog'lanishlar asosida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmiga omillar ta'siri asosidagi rivojlanishning ko'p variantli ssenariylaridan biri ishlab chiqildi. Aniqlangan trendlardan foydalanish sohaga kiritilayotgan resurs hajmini to'g'ri taqsimlagan holda resurs birligidan olinadigan samarani optimallashtirish imkonini beradi.



1-rasm. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi ko'rsatkichining 2014-2030 yillarda o'zgarishi, mlrd so'm (2026-2030 yil prognoz ko'rsatkichlari)

Ko'p omilli bog'lanish asosida aniqlangan trend modellari kelgusi davrda soha faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining tanlangan omillar ta'sirida ma'lum bir chegaradagi xatoliklarni hisobga olgan holda o'zgarishini oldindan prognozlash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining o'zgarishi ham 4 ta asosiy omil ta'sirida kelgusi davr uchun prognoz qiymatlarni aniqlashda qo'l keladi. Yuqoridagi hisob-kitoblar asosida aniqlangan ekonometrik modelning ahamiyati va uning parametrlari sifatini baholamasdan turib, modeldan amaliyotda foydalanish katta xatoliklarning yuzaga kelishiga olib keladi. Shuni e'tiborga olgan holda, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining o'zgarish modelini uning ahamiyati va model parametrlarining sifatini baholaymiz. EVIEWS10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash ko'rsatkichlari orqali baholangan (6-jadval).


6-jadval. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha tanlangan omillarning bog'lanish xususiyatlari va tuzilgan omilli model sifatining asosiy ko'rsatkichlari

Dependent Variable: Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, LnY				
Method: Least Squares				
Date: 05/30/26 Time: 17:00				
Sample: 2014 2025				
Included observations: 12				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
Yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi, LnX ₁	0.632714	0.557951	1.133995	0.2941
Inflyatsiya darajasi, LnX ₂	-0.293218	0.166295	-1.763241	0.1212
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, LnX ₃	1.274377	0.428269	2.975649	0.0206
Tashqi savdo aylanmasi, LnX ₄	-0.692509	0.486543	-1.423326	0.1976
Tasodifiy omillar umumiy ta'siri, ε	-4.901163	3.450244	-1.420526	0.1984
R-squared	0.993477	Mean dependent var		10.80167
Adjusted R-squared	0.989749	S.D. dependent var		1.396787
S.E. of regression	0.141419	Akaike info criterion		-0.779838
Sum squared resid	0.139996	Schwarz criterion		-0.577794
Log likelihood	9.679029	Hannan-Quinn criter.		-0.854642
F-statistic	266.5224	Durbin-Watson stat		2.159949
Prob(F-statistic)	0.000012			

Jadvalda ko'rsatilgan ko'rsatkichlar qiymatidan foydalangan holda tuzilgan ekonometrik modelning ahamiyati va parametrlari sifati baholanadi. Aniqlangan modeldagi endogen omil uchun Fisher mezonini qiymati 266,52ga teng bo'lib, uning ahamiyati 0,000012ga teng. Bundan ko'rinib turibdiki, tuzilgan trend modelni ahamiyati jihatidan amaliyotda qo'llash mumkin. Model sifati dasturiy paket vositasida Akiake axborot mezonini (-0.779838), Shvars mezonini (-0.577794) va Xannan-Kuin mezonini (-0.854642) orqali baholangan. Ushbu mezonlar qiymati ham trend modelini amaliyotda qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

Tuzilgan ekonometrik modelda avtokorrelyatsiya yoki multikolleniarlik mavjudligini aniqlash imkonini beruvchi Darbin-Uotson (DW) mezonini 2,15 ga teng bo'lib, optimal chegara 2,0 atrofida ekanligi hisobga olinsa, modelda avtokorrelyatsiya darajasi deyarli mavjud emasligini ko'rish mumkin.

EVIEWS10 dasturiy paketidan foydalangan holda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining ± 2 statistik xatolik chegaralarida o'zgarishi trendi shakllantiriladi hamda ushbu trendning ahamiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar baholanadi (2-rasm).




2-rasm. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 2014-202 yillardagi o'zgarishida sof foydalaning ± 2 statistik xatolik chegaralarida o'zgarishi

2-rasmda keltirilgan ko'rsatkichlar tuzilgan modelning ahamiyati hamda adekvatligini aks ettiradi. Jumladan, Teil notenglik koeffitsiyenti 0,004962 ga, Teil U2 koeffitsiyenti 0,234494 ga, Bias nisbati 0 ga, variatsiya nisbati 0,001636 ga, kovariatsiya nisbati 0,998364 ga hamda simmetrik MAPE 0,931941 ga teng ekanligi tuzilgan modelning zaruriy oraliqlarda joylashganligini ko'rsatadi. Xususan, simmetrik MAPE uchun chegara 10 gacha ekanligi hisobga olinsa, taxminiylik xatoligi darajasi belgilangan chegaradan kichikligini ko'rish mumkin.

Yuqoridagilar bilan birga xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining omillar ta'sirida o'zgarish modelini baholashda qoldiq, haqiqiy va tuzilgan model qiymatlari grafigidan ham foydalanish maqsadga muvofiq (3-rasm).

3-rasmda berilgan grafikda qoldiq model asosida hisoblangan va haqiqiy qiymatlarning qoldiq ko'rsatkichlari o'rtasidagi tebranish darajasi yuqori bo'lsa-da, haqiqiy ko'rsatkichlar va tuzilgan model asosida hisoblangan ko'rsatkichlar grafigi o'rtasidagi farq darajasi sezilarli ekanligini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi tahliliy ma'lumotlar hamda ko'rsatkichlar qiymatlarini baholash asosida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va unga omillar ta'sirini hisobga olgan quyidagi trend modelini sohada kelgusi davrda rivojlantirish strategiyalari asosida ssenariylar ishlab chiqish jarayonida qo'llash mumkin. Ushbu ishlab chiqilgan model va prognoz ko'rsatkichlar Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi kelgusi qisqa va o'rta muddatlar oralig'ida rivojlantirish rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqish yo'nalishida muqobil ssenariylarni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.



3-rasm. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining qoldiq, haqiqiy va tuzilgan model qiymatlari grafigi

Ushbu amaliyotda foydalanish uchun taklif etilayotgan model va shu kabi ssenariylardan foydalanishda Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini oshirish nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslar (ekzogen omillar) hajmini har bir birlik qo'shimcha kiritilayotgan resurs birligidan olinadigan samarani hisobga olgan holda belgilash sohada xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini optimal ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. 2014–2025 yillar ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan ekonometrik tahlil natijasida xorijiy investitsiyalar hajmiga yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya darajasi, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi hamda tashqi savdo aylanmasi sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tuzilgan ko'p omilli logarifmik regressiya modeli yuqori statistik ishonchlilikka ega bo'lib, determinatsiya koeffitsiyentining ($R^2=0,993$) yuqoriligi natijaviy ko'rsatkichdagi o'zgarishlarning 99,3 foizi modelga kiritilgan omillar hisobiga izohlanishini ko'rsatdi. Tahlil natijalariga ko'ra, xorijiy investitsiyalar hajmiga eng katta ijobiy ta'sir asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi tomonidan ko'rsatilishi aniqlandi. Shuningdek, YAIM hajmining ortishi

investitsion faollikni rag'batlantirsa, inflyatsiya darajasi va tashqi savdo aylanmasidagi ayrim nomutanosib o'zgarishlar investitsiyalar hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi kuzatildi.

Ishlab chiqilgan prognoz natijalariga ko'ra, 2026–2030 yillarda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi izchil o'sib borishi kutilmoqda. Bu esa mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Нешитой С.А. Инвестиции. Учебник. –М.: Дашков и К, 2007. – С. 15.
2. Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. – М.: «Финансы и статистика», 1998.
3. Арзимияна и др. Большой экономический словарь. – М.: «Правовая культура», 1994. – С.157.
4. Газибеков Д.Г, Ангелиди М.С. Инвестиционная деятельность перед вхождением в рыночную экономику. – Т.: ТФИ, 1994.
5. Попков В.П., Семенов В.П. Организация и финансирование инвестиций.–СПб.: Питер, 2001. – С. 22.
6. Игонина Л.Л. Инвестиции. Уч.пос.– М.: Экономист, 2005. – С. 25.
7. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Y, Nurbekov O.SH. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – Т.: Iqtisod-moliya, 2014. – 52 b.

Rezyume. Maqolada O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanishni ekonometrik modellashirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: xorijiy investitsiya, ekonometrik modellashirish, kreditlar, kapital.

Резюме В статье рассматриваются вопросы эконометрического моделирования привлечения и использования иностранных инвестиций в Узбекистане.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, эконометрическое моделирование, кредиты, капитал.

Summary The article examines the issues of econometric modeling of attracting and utilizing foreign investment in Uzbekistan.

Key words: foreign investment, econometric modeling, loans, capital.
